

MAKTAB O'QUVCHILARI ORASIDAN "KORREKSION GURUH"GA KIRUVCHI O'QUVCHILARNI ANIQLASH VA ULAR BILAN ISH TASHKIL ETISH

Xo'shboqov Muxiddin Ravshanovich

Surxondaryo viloyati Sherobod

tumani 29-maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab o'quvchilari orasidan "Korreksion guruh"ga kiruvchi o'quvchilarni aniqlash va ular bilan samarali ish tashkil qilish bosqichlari haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, xulq, tarbiya, tarbiyasi qiyin, to'liqsiz oila farzandi, korreksiya, profilaktika, diagnostika.

Tibbiyotda kasallikni davolashdan avval aniq tashxis qo'yish muhim bo'lgani kabi, maktab psixologi tomonidan ham o'quv yili avvalida o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, ularning oilaviy sharoitlarini o'rganish muhim vazifa hisoblanadi.

Shu maqsadda, sentyabr oyi davomida maktab psixologi tomonidan o'quvchilarning ruhiy holatini aniqlash, ularning oilaviy sharoitlarini o'rganish hamda korreksion guruhlarni aniq belgilab olish vazifalari amalga oshiriladi.

O'quv yili avvalida o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, oilaviy muhitini o'rganish, tahlil qilish va korreksion guruhlarni shakllantirib olish hamda ushbu tahlillar asosida o'quv yili davomida amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish maqsadga muvofiqdir.

Dastavval ishni quyidagilar asosida tashkil qilinadi:

1. 1-11 sinf o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik portretini tayyorlash.
2. 5-11 sinf o'quvchilari orasida "Shaxs xususiyatlarini o'rganish" testini o'tkazish va tahlil qilish.
3. Ijtimoiy xavfga kiruvchi oilalar va ularning farzandlari ro'yxatini to'liq shakllantirish.
4. Inspektor-psixolog bilan hamkorlikda ushbu oilalar bilan manzilli ish olib borishni rejalashtirish.

Dastlab psixolog tomonidan o'quvchilarning ro'yxati sinflar kesimida to'liq shakllantiriladi. Sinf rahbarlari bilan hamkorlikda barcha o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik portreti, berilgan namunaviy shakl asosida to'ldiriladi hamda sinflar kesimida alohida-alohida shakllantiriladi. 5-11-sinf o'quvchilari orasida "Shaxs xususiyatlarini o'rganish" diagnostik metodikasini o'tkazish bo'yicha aniq reja tuziladi.

Shuningdek, testni o‘tkazish maqsadida psixolog Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosariga bildirgi bilan murojaat qiladi hamda sinf rahbarlari bilan kelishgan holda har-bir sinfda testni psixologning o‘zi berilgan namuna asosida o‘tkazadi.

Testni o‘tkazishda psixolog quyidagilarga rioya qilishi lozim:

So‘rovnoma savollari o‘quvchilarning qo‘liga berilmaydi; Psixolog tomonidan o‘quvchilarga toza qog‘ozga 1 dan 75 gacha raqam qo‘yishlarini so‘raladi va savollar o‘qib beriladi. Savolni o‘qish davomida o‘quvchilardan ko‘p o‘ylanmasdan “Ha”, “Ba’zan” yoki “Yo‘q” javoblaridan birini yozishlari so‘raladi; Test natijalarini tahlil qiladi hamda har-bir toifa bo‘yicha xavf guruhiga kiruvchi o‘quvchilar ro‘yxatini aniq, sinflar kesimida shakllantiradi.

Bunda:

- Huquqbuzarlik (noqonuniylikdan oldingi) xatti-harakatlari;
- Addiktiv (zararli odatlarga qaramlik) xatti-harakatlar;
- Tajovuzkor xatti-harakatlar;
- O‘z-o‘ziga zarar yetkazuvchi (autodestruktiv) xatti-harakatlarga moyil

bo‘lgan o‘quvchilar aniqlanadi va korreksion guruhlar shakllantiriladi hamda maktab direktorining buyrug‘i bilan korreksion guruhlar ro‘yxatlari va korreksion mashg‘ulotlarni o‘tish reja-grafigi o‘quv yili uchun tasdiqlatadi. Korreksion guruhlar 5-7, 8-9 hamda 10-11-sinflar kesimida shakllantiradi.

Psixolog testni to‘liq yo‘riqnoma asosida o‘tkazilishini hamda tahlil qilinishini ta’minlashi lozim. Bundan tashqari, psixolog ijtimoiy xavfga kiruvchi oilalar va ularning farzandlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni MMIBDO‘, sinf rahbari hamkorligida alohida shakllantiradi.

Bunda:

- kam ta’minlangan oilalardagi o‘quvchilar ro‘yxati;
- to‘liq bo‘lmagan oilalardagi o‘quvchilar ro‘yxati;
- nogiron bolalari mavjud bo‘lgan oiladagi o‘quvchilar ro‘yxati;
- ota-onasi ishsiz bo‘lgan o‘quvchilar ro‘yxati;
- homiylik va vasiylikka olingan o‘quvchilar ro‘yxati;
- ijtimoiy xavfli vaziyatda bo‘lgan (janjalli) oilalardagi o‘quvchilar ro‘yxati;
- ota-onasi yoki ota-onasidan biri mehnat migratsiyasida bo‘lgan o‘quvchilar ro‘yxati;
- ota-onalari yoki ulardan bittasi ozodlikdan mahrum qilingan o‘quvchilar ro‘yxati va boshqa ijtimoiy hamda oilaviy muammosi bor o‘quvchilar ro‘yxati alohida shakllantiriladi.

Inspektor-psixolog va boshqa mutasaddilar bilan hamkorlikda ijtimoiy-psixologik jihatdan xavfi mavjud oilalar bilan manzilli ishlash rejasi aniq belgilanadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, inspektor psixolog, sinf rahbarlari bilan hamkorlikda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Farzand tarbiyasida ona-onaning mas'uliyati" tarbiya haftaliklari doirasida belgilangan tadbirlar o'tkaziladi. Bunda: "Mustahkam oila: ota-onalar va bolalar o'rtasida ishonchli aloqa" – Ota-onalar va bolalar o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatish bo'yicha amaliy trening mashg'uloti. "Adaptatsiya va ijtimoiylashuv" birinchi va beshinchi sinf o'quvchilarining ota-onalari uchun trening mashg'uloti. "Nima uchun o'qish qiyin yoki maktabga adaptatsiya nima?"- ota-onalar uchun davra suhbatlari o'tkaziladi. Oy yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, "Shaxs xususiyatlarini o'rganish" testi natijalarini namuna asosida berilgan jadval bo'yicha hisobotlar tayyorlanadi. Shu bilan birgalikda yil davomida mazkur so'rovnoma natijalari asosida ajratib olingan o'quvchilar bilan reja asosida korreksion mashg'ulotlar olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. - Toshkent, O'qituvchi, 1992.
2. Almetov N.Sh. Pedagogika. O'quv qo'llanma. - Almato', 2001.
3. Podlasiy I P. Pedagogika. V 2 kn. Kn. 1. - Moskva, Vldos, 1999.
4. Pedagogika. Munavvarov A.K.ning umumiy tahriri ostida. - Toshkent,
5. Psixolog faoliyatini tartibga solishda foydalaniladigan metodik tavsiya. Respublika tashxis markazi. 2024.